

UDK: 2:17(575.1)

YOSHLAR DUNYOQARASHIDA DINIY VA AXLOQIY QADRIYATLAR UYG'UNLIGINING IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI

Dilbar Ruzmetova

Alfraganus universiteti

"Ijtimoiy fanlar" kafedrası v.b professori

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar dunyoqarashida diniy va axloqiy qadriyatlarning o'zaro uyg'unligi hamda ularning ijtimoiy-falsafiy mohiyati tahlil qilingan. Maqolada diniy qadriyatlarning axloqiy me'yorlarni shakllantirishdagi roli, yoshlar ma'naviy tafakkurining rivojida e'tiqod va vijdon tushunchalarining o'rni ilmiy-nazariy asosda yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda diniy va axloqiy tarbiyaning uyg'unligi yoshlar ma'naviy immunitetini mustahkamlovchi muhim omil sifatida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, din, axloq, ma'naviyat, vijdon, qadriyat, e'tiqod, dunyoqarash, yoshlar, ratsionallik, umuminsoniylik, komil inson.

Abstract. This article analyzes the harmony of religious and moral values in the worldview of young people and their socio-philosophical essence. The article discusses the role of religious values in the formation of moral norms, the role of the concepts of faith and conscience in the development of the spiritual thinking of young people on a scientific and theoretical basis. Also, the harmony of religious and moral education in modern society is analyzed as an important factor in strengthening the spiritual immunity of young people.

Keywords: society, religion, morality, spirituality, conscience, value, faith, worldview, youth, rationality, universality, perfect person.

Аннотация. В статье анализируется гармония религиозных и нравственных ценностей в мировоззрении молодёжи и их социально-философская сущность. В статье на научно-теоретической основе рассматривается роль религиозных ценностей в формировании нравственных норм, роль понятий веры и совести в развитии духовного мышления молодёжи. Также анализируется гармония религиозного и нравственного воспитания в современном обществе как важный фактор укрепления духовного иммунитета молодёжи.

Ключевые слова: общество, религия, мораль, духовность, совесть, ценность, вера, мировоззрение, молодёжь, рациональность, универсальность, совершенный человек.

KIRISH. Insoniyat taraqqiyoti davomida din va axloq jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Ularning uyg'unligi inson ma'naviy kamolotining mezon, jamiyat barqarorligining poydevori hisoblanadi. Axloq – bu inson xatti-harakatlarini boshqaruvchi ijtimoiy me'yorlar majmui bo'lsa, din – insonni ezgulikka, adolatga va halollikka undovchi ilohiy-ruhiy tizimdir.

Yoshlar dunyoqarashida diniy va axloqiy qadriyatlar uyg'unligi masalasi bugungi globallashuv, axborot oqimlari va g'oyaviy tahdidlar kuchaygan sharoitda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki har qanday jamiyatning ma'naviy barqarorligi, eng avvalo, yoshlarning e'tiqodi va axloqiy ongining yuksakligiga bog'liqdir.

Inson aqlan rivoj topgan mavjudot sifatida o'zining ma'naviy va axloqiy ongini doimiy takomillashtirib boradi. Shu bois inson axloqi boshqa biologik mavjudotlardan tubdan farq qiladi — u ijtimoiy taraqqiyot jarayonida murakkab shakllarga ega bo'lgan. Jamiyat hayotida axloqiy me'yorlar ijtimoiy tartib va barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Axloqiy qoidalar buzilganda jamiyat tanazzulga yuz tutadi, bu esa tabiiy evolyutsiyada moslashuvni yo'qotgan organizmlarning yo'qolishiga o'xshash hodisadir.

Axloqning paydo bo'lishiga ikki asosiy yondashuv mavjud: diniy-teologik va evolyutsion. Diniy yondashuvga ko'ra, axloqiy me'yorlar Xudo tomonidan insoniyatga berilgan ilohiy ko'rsatmalar sifatida talqin qilinadi. Evolyutsion yondashuv esa axloqni jamiyat taraqqiyoti davomida shakllangan ijtimoiy zarurat deb izohlaydi. Insoniyat tarixida axloq avval mifologik qarashlar asosida, keyinchalik esa diniy va huquqiy tizimlar shaklida rivojlangan.

Arastu axloqni insonni “yovvoyilikdan insoniylik sari” yetaklovchi kuch sifatida baholagan. Uningcha, axloqiy tayanchsiz inson o'z aqlini yovuzlikka xizmat qildiradi. Immanuil Kant esa axloqni “aqlning amaliy faoliyati” sifatida talqin qilib, inson xatti-harakatlari umumiy axloqiy qonunlarga mos bo'lishi lozimligini ta'kidlagan. Kant fikricha, inson o'ziga va boshqalarga nisbatan maqsad sifatida munosabatda bo'lishi kerak, bu esa axloqning eng oliy tamoyilidir.

Zamonaviy gumanistik yo'nalish vakili Erix Fromm axloqni insonparvarlik mezonlari orqali izohlab, uni ikki shaklga — ratsional va noratsional obro'parvarlik axloqiga ajratadi. Ratsional axloq insonning ongli tanlovi va mas'uliyat hissiga asoslangan bo'lsa, noratsional axloq qo'rquv va itoatga tayanadi. Shu bois axloqning haqiqiy mohiyati insonning ongli faoliyatida, ijtimoiy qadriyatlarga sodiqligida namoyon bo'ladi. Axloq insoniyatning ijtimoiy hayotini tartibga soluvchi universal tizim bo'lib, uning asosida diniy e'tiqod, vijdon, ongli tanlov va ijtimoiy mas'uliyat kabi tushunchalar mujassamdir.

Erix Fromm axloqiy tizimni tahlil etar ekan, obro'parvarlik axloqining ikki asosiy shaklini ajratadi: **ratsional** va **noratsional**. Ratsional obro'parvarlik insonning ongli

ravishda zimmasiga yuklatilgan vazifalarni mas'uliyat bilan ado etishiga, faoliyat samaradorligiga asoslanadi. U vaqtinchalik bo'lib, insonning ijtimoiy burchini halol bajarishi orqali hurmat qozonadi. Noratsional obro'parvarlik esa, aksincha, qo'rquv va hukmronlikka tayanadi, u tanqidni inkor etadi hamda ijtimoiy tengsizlikka asoslanadi. Shu bois, haqiqiy axloq ongli tanlov va tenglik tamoyillariga tayangan ratsional xulq bilan belgilanadi.

Insoniyat tarixida din va axloq har doim bir-birini to'ldiruvchi, jamiyatni tartibga soluvchi ikki asosiy omil sifatida namoyon bo'lgan. Diniy e'tiqodlar insonni yomonlikdan qaytaruvchi ma'naviy mexanizm vazifasini bajargan. Hatto dunyoviy yo'nalishdagi faylasuflar ham dinni jamiyat axloqini nazorat qiluvchi institut sifatida e'tirof etganlar. Shu bois diniy ta'limotlarning asosiy g'oyasi – bu axloqiy komillikka erishishdir.

Mazkur fikrlar o'z ifodasini qadimiy “Avesto” ta'limotida ham topgan. Zardo'sht falsafasida “ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amal” tamoyili inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida talqin etiladi. Bu uchlik insonning fikr, so'z va amaldagi uyg'unligi orqali ma'naviy mukammallikka erishishini bildiradi. Demak, haqiqiy axloq – bu insonning niyati, so'zi va amali o'rtasidagi muvofiqlikdir; bu uyg'unlik jamiyat barqarorligi va insoniy qadriyatlarning poydevorini tashkil etadi.

Yevropa Uyg'onish davri mutafakkirlari axloqiy qadriyatlarga transsendental, ya'ni ilohiy asosdan emas, balki **real, dunyoviy va amaliy nuqtayi nazardan** yondashganlar. Golland faylasufi **Benedikt Spinoza** axloqni ilohiy kuchga bog'lab talqin etishni rad etib, uning manbaini inson aqlida deb biladi. Unga ko'ra, inson o'z xatti-harakatlari uchun mas'ul bo'lib, yaxshilik va yomonlikni ajrata olish qobiliyatiga ega mavjudotdir. Shu bois Spinoza axloqni inson tafakkurining tabiiy mahsuli sifatida izohlaydi.

Nemis faylasufi **Immanuil Kant** esa axloqiylikni inson aqlining amaliy faoliyati bilan bog'lab, insonning axloqiy burchi — yaxshilik qilish orqali baxtga erishishdir, deya ta'riflaydi. U “Amaliy aql tanqidi” asarida insonning axloqiy qarorlarini faqat hissiyot emas, balki ongli aql boshqarishi kerakligini ta'kidlaydi. Kant uchun axloq — bu insonning ichki qonuni bo'lib, u e'tiqod bilan uyg'unlashgandagina mukammallikka erishadi.

Mazmunan, **diniylik va axloqiylik bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir**. Har ikkisi ham inson hayotining ma'naviy mohiyatini belgilaydi. Din insonni qanday yashash kerakligini o'rgatsa, axloq bu yashashning mezonlarini belgilaydi. Imom **G'azzoliy** insonni tarbiyalashda diniy ta'sirning kuchini alohida ta'kidlab, e'tiqod orqali axloqiy tozalik va ma'naviy poklikka erishish mumkinligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, diniy e'tiqod insoniyatning axloqiy takomiliga zamin yaratadi. Diniy dunyoqarash inson tafakkurida yaxlit ma'naviy manzara hosil qilib, uni ezgulikka, mas'uliyat va halollikka chorlaydi. Bu uyg'unlik jamiyatning ma'naviy

taraqqiyoti va insoniyat sivilizatsiyasining uzluksiz rivojlanishida muhim ijtimoiy-falsafiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Jamiyat taraqqiyoti davomida din insoniyat ma'naviy hayotining ajralmas qismiga aylanib, umuminsoniy axloqiy me'yorlarni shakllantirishda muhim o'rin egallab kelgan. Diniy ta'limotlar inson xulq-atvorini nazorat qiluvchi, uni ezgulikka, bag'rikenglikka, o'zaro hurmat va totuvlikka chorlovchi kuch sifatida jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlab kelmoqda. Shu ma'noda din qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazish, inson ruhiyatini mustahkamlash va ijtimoiy birdamlikni rivojlantirishda muhim ma'naviy omil hisoblanadi.

Tarixiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, ko'plab davlatlarda din siyosiy barqarorlikni mustahkamlash vositasi sifatida e'tirof etilgan. Dinning ijtimoiy, tarixiy, gnoseologik va psixologik ildizlarini tahlil qilish uning jamiyatdagi o'rnini chuqur anglash imkonini beradi. Bugungi demokratik jamiyatlarda esa diniy tashkilotlarning ma'naviy-ma'rifiy faoliyati ijtimoiy hayotning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Ularning faoliyati fuqarolarda mas'uliyat, bag'rikenglik va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Din va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar milliy, umuminsoniy va axloqiy qadriyatlar uyg'unligi tamoyiliga asoslanishi zarur. O'zbekiston tajribasida bu tamoyil davlat siyosatining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, diniy tashkilotlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi ham ortib bormoqda. Dinning ijtimoiy ildizlari insonni faollikka, tinchliksevarlikka va ijobiy hayotiy pozitsiyaga yo'naltiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu bilan birga, diniy e'tiqodning jamiyatdagi ijobiy ta'siri, avvalo, ta'lim tizimi va qonun ustuvorligi bilan chambarchas bog'liq. Agar jamiyatda dunyoviy bilim, tanqidiy fikrlash va erkin tafakkur yetarlicha rivojlangan bo'lsa, din ijtimoiy barqarorlikni kuchaytiruvchi omil sifatida xizmat qiladi. Aksincha, diniy bilimni chuqur tahlilsiz, so'zsiz qabul qilish holati radikalizm, fikr erkinligining cheklanishi va ijtimoiy passivlikka olib keladi. Shu bois diniy ta'lim yuqori sinf o'quvchilariga, ilmiy xolislik va qiyosiy yondashuv asosida berilishi maqsadga muvofiqdir.

Demak, yoshlarimizning dinga bo'lgan munosabatlarini ijobiyligini hamda unga nisbatan qiziqishning yuqori ekanligini hisobga olgan holda, ma'naviy-ma'rifiy tarbiyada diniy omil ham o'ziga beqiyos ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlab o'tishimiz kerak. Zero, mustaqil davlatimizga, eng avvalo, iymoni butun, qalbi toza insonlar, birinchi navbatda yoshlar kerak. Har kungi faoliyatlarida insonlarga ezgu amallar, savob ishlar qilish, solih xulq sohibi bo'lgan yoshlarimiz dunyoqarashi-nafaqat o'zini shu bilan barcha yor-birodarlarini ham ezgulikka yetaklaydigan ma'naviy omillardan biri ekanligiga yosh avlodni ishontirishning o'zi ham dunyoviy ma'rifatdan o'zga narsa emas.

Umuman olganimizda, diniy g'oyalarni anglash va o'rganish, hozirgi vaqtda keng qamrovli islohotlarni o'tkazish jarayonida jamiyatni ma'naviy boyitish, milliy ongimizni yanada yuksaltirish, kelajagi buyuk davlatni yaratuvchi yosh avlodni dunyoviylik ruhida, milliy qadriyatlarimizga hurmat-ehtirom ruhida kamol topishlari uchun muhim omil bo'lib xizmat qilgan bo'lur edi. Xulosa qilib aytganda, din va axloq uyg'unligi jamiyatning ma'naviy poydevorini mustahkamlab, shaxs ongida ezgulikka intilish, mas'uliyat va ijtimoiy faollikni shakllantiradi. Diniy qadriyatlar bilan boyigan dunyoviy ta'lim tizimi esa insonni komillikka yetaklovchi eng muhim yo'nalishlardan biridir.

Adabiyotlar:

1. Aristotel. Politika. –M., 1911. S. 9.
2. Fromm E. Chelovek dlya sebya. Minsk, Xorvest, 2004. S. 18.
3. Nisshe F. Zardo'sht tavallosi.//Tafakkur. 1995. 1-son. B. 94
4. Schiepp P. I.Kants practical ethics Evanston, 1964. R. 71.
5. I.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.Toshkent 1997. 36-bet.